



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

2022 YIL 24 OKTABR

## **TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTORINING “TIBBIYOT XODIMLARI KUNI” MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI**

*Hammamizga  
ma'lumki, har  
yili noyabr  
oyining ikkinchi  
yakshanbasi  
mamlakatimizda  
“Tibbiyot xodimlari  
kuni” bayram  
sifatida keng  
nishonlanib  
kelinadi.*



Shifokorlik kasbi – eng mashaqqatlari va shu bilan birga sharaflı kasblardan biri hisoblanadi. Chunki, bizning mahoratimiz, malakamiz, mas'uliyatimiz insonlarning hayoti va taqdirida o'rın egallaydi. Jamiyatimizning barcha sohalari qatorida, mamlakatimizda tibbiyotning rivojlanishi, sifatlari tibbiyot xizmatlaridan foydalanshlari, shifokorlarning bilimlari, ko'nikmalari, mahoratlarini oshirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan kelinmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Biz barcha sohalardan ham tibbiyot sohasiga alohida e'tibor ko'rsatdik. Chunki bos maqsadimiz – xalq salomatligini saqlash, sog'lig'ini yanada mustahkamlash” – deb ta'kidlagani so'zlarimizning isbotidir.

Bugun davlatimiz rahbari tomonidan tibbiyot sohasi vakillari oldiga butunlay yangi talab va vazifalar qo'yilgan. Prezidentimiz tomonidan yuksak marjalarga erishish uchun 2026 yilgacha Taraqqiyot strategiyasi doirasida 5 ta asosiy vazifa belgilandi. 5 ta asosiy

vazifaning birinchisi – ta'lim va to'rtinchisi – sog'liqni saqlash sohalaridir. Birinchi – ta'lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratish izchil davom ettirilishi, buning uchun maktablarning o'quv dasturlari, o'qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko'rib chiqilishi, to'rtinchisi – sog'liqni saqlash tizimida esa aholiga yanada sifatlari va malakali tibbiyot xizmatlardan foydalishim imkoniyatini kengaytirilishi, barcha hududlarda shoshilinch tibbiy yordam qamrovi oshirilib, odamlarga yanada yaqinlashirilishi ko'zda tutilgan.

Zahmatli ammo sharaflı kasbingiz ortidan kelayotgan xalq olqishi va rahmati sizlarni yuksaklarga chorlasin. Insonlarni davolash, sog'lig'ini yaxshilash, mustahkamlash yo'lidagi ishlarinigizda ilmingiz yanada oshib, tafakkuringiz teranlashib boraversin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy, tashkiliy va boshqa jarayonlarda qo'lga kiritilayot-

gan yutuqlarda Siz hurmatli hamkasblarning mehnatlarining beqiyos. Mehнатдаги, илмиy, ijodiy izlanish va o'quv jarayonidagi fidoyiligingizni hamisha yuksak qadrlaymiz. Bilimli, zukko professor-o'qituvchi va talabalarimizning izlanish, intilish va qo'lga kiritayotgan yutuqlaridan faxrlanamiz.

Shifokor hamkasblar, ustoz va murabbiylar, aziz talabalar! Sizlarning barchangizni kasb bayramingiz bilan yana bir bor muborakbod etaman. Sizlarga uzoq umr, tani-sihatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va xotirjamlik tilayman, ilmiy va ijodiy faoliyatizingiz, o'qishlaringizda omad hamisha yor bo'lsin.

Aziz va qadrondon hamkasblar, shifokorlar – barchangizga bayram muborak bo'lsin!

**Alisher SHADMANOV,  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori**

Hikmat



*Xalqi uchun fidokor, qahramon shifokorlar.*

Hikmat



## QALBI EZGULIKLARGA YO'G'RILGAN AZIZ USTOZLAR!



Toshkent tibbiyot akademiyasida 1 oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tadbir bo'lib o'tdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.Shadmanov tadbirni oshib berar ekan, uzoq yillardan beri samarali xizmat qilgan, yosh shifokorlarni tarbiyalashda shijoat ko'rsatib kelayotgan bir qator professor-o'qituvchilarni hamda akademiya xodimlarini bayram bilan muborakbod etdi.



Sog'liqni saqlash sohasiga yetuk va malakali kadrlarni tayyorlab berayotgan professor-o'qituvchilarga yuksak ehtirom bildirildi. Bilgani mehnat, tаниgani sabr, matonat bo'lgan ustoz shifokorlar sha'niga eng samimiy tilaklar yangradi. Shuningdek, akademiya rahbariyati tomonidan munosib taqdirlandi.

## TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHILARI TAQDIRLANDI

1 oktyabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni bayrami munosabati bilan Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lif tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, sohaga doir islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, o'quv-tarbiya jayroniga milliy va ilg'or xorijiy tajribalar, innovation pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlariga qo'shgan munosib hissasi uchun bir guruh mutaxassislar "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Jumladan, Sog'liqni saqlash vazirining tegishli buyrug'i bilan:

Xalmatova Barno Turdixodjayevna — Toshkent tibbiyot akademiyasi "1-son bolalar kasalliklari" kafedrasi mudiri;

Vaxidov Alisher Shavkatovich — Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali "Umumi xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi" kafedrasi mudiri;

Matrizayeva Gulnora Djumaniyazovna — Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali "Akusherlik va ginekologiya" kafedrasi mudiri.

Fursatdan foydalanib, mukofotlaniganlarni muborakbod etib, sihat-salomatlilik tilaymiz.



*Buyuk Britaniyaning nufuzli reyting tashkiloti – Times Higher Education agentligi o'zining World University Rankings – 2023 reyting natijalarini e'lon qildi.*

## O'ZBEKISTONNING 28 OLIY O'QUV YURTI TOP-1 000 TALIK REYTINGGA KIRISH UCHUN DA'VOGAR SIFATIDA QAYD ETILDI



E'tiborlisi, bu yil respublikamizning yana 18 ta oliy ta'lif muassasasi "reporter" maqomida qayd etilishi bilan TOP-1 000 talik reytingdan joy olish uchun davogarlar 10 tadan 28 taga yetdi.

Quvonarlisi, ular orasida Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi 5 ta oliy ta'lif muassasasi ham o'rinn oldi.

### Ular quyidagilar:

- \* Toshkent tibbiyot akademiyasi;
- \* Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;
- \* Toshkent davlat stomatologiya instituti;
- \* Toshkent farmatsevtika instituti;
- \* Andijon davlat tibbiyot instituti.

Ushbu reytingda universitetlarning 4 ta yo'nالishdagi samaradorlik ko'satkichlari baholandi: o'qitish, tadqiqot, ta'lif sifati va xalqaro istiqbollar.

Mazkur 28 ta oliy ta'lif muassasasi THEning nufuzli reytinglariga kirish uchun nomzod sifatida tanlanib, bunda reyting agentligi ularga yaqindan yordam beradi.

Ma'lumot o'rniда, joriy yil ushbu reytingda 1 799 ta universitet qayd etildi, bundan tashqari 526 ta universitet "reporter", ya'ni da'vogar universitetlar nominatsiyasiga ega bo'ldi.




## FAXRIMSAN, IFTIXORIMSAN ONA TILIM!

**Til – tafakkur gultoji. Kishi o'y-fikrlari bayonidir. Til har bir millatning ko'zgusi, shu millatning nomusidir. Har bir shaxsning qalb qo'ridagi muqaddas tilsimi bu uning shubhasiz ona tilidir.**



O'ZBEK TILINGA DAVLAT TILI  
MAQOMI BERILGAN KUN



Dunyo xalqlari va millatlarining madaniy o'zagi va asosiy muloqot manbai bu ularning milliy tili hisoblanadi. Shunday ekan har bir tilning saqlanishi hamda yosh avlodga yetkazilishi, xalq taraqqiyoti va uning kelajagini belgilaydi. Birgina til ko'plab xalqlarni o'zaro birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, an'ana va madaniyatlarini saqlaydi, uni avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydi. Turkiy tillar oilasining eng jozibador va jarangdor tili hisoblanmish o'zbek tili asrlar silsilasida toblangan qadimiy navqiron tildir. Navoiy qalamini charxlagan, Bobur fikrini toblagan, Qodiriy asarlarini boyitgan azim tildir.

Ona tili – millatning ruhi, davlat timsoli va shu davlatning mulkidir. 1989 yil 21 oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. Bu Qonun xalqimizning mustaqillik uchun qo'yilgan dastlabki qadami bo'ldi. Ushbu Qonunning 1-moddasi va Bosh Qomusimizning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili" ekanligi va O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlanishi ham belgilab qo'yilgan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim sil-

jishlardan biri bo'lib, ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlabgina qolmay O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi va mamlakatimizga xorijdan kirib kelayotgan barcha millat va elatlarning tillarini hurmat qilinishini ta'minladi

2020 yil 10 aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi quvonarli hol bo'ldi. Ushbu qonun bilan har yili 21 oktabr "O'zbek tili bayrami kuni" etib nishonlash belgilandi. Endilikda har yili 21 oktabr butun mamlakatimiz bo'ylab katta bayram sifatida nishonlanayotganligi quvonarlidir.

Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyida ham shukuhli bayram tadbiriga munosib tayyorgarlik ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "5 tashabbus" doirasida hamda O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgаниning 33 yilligi munosabati bilan "Faxrimsan, iftixorimsan – ona tilim!" haftalik loyihasiga start berildi. Loyiha doirasida devoriy gazetalar tanlovi, "Kitob tafakkur gulshani" nomli kitoblar yarmarkasi, "Onajonim she'riyat" mavzusida shoira Zebo Mirzayeva hamda Zulfiya mukofoti sovrindori

Rohila G'o'zzayeva bilan badiiy-ijodiy uchrashuv o'tkazildi.

Tadbir o'quvchi yoshlarda katta taassurot uyg'otdi. Shu bilan bir qatorda akademik litsey Tillar kafedrasи mudiri D.Ismoilova hamda birinchi bosqich 101 va 103-guruh o'quvchilari ishtirokida o'zbek tili bayramiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Tadbir chin ma'noda ona tiliga hurmat, e'tibor tuyg'usini shakllantirishga zamin bo'la oldi. Haftalik o'qituvchi va o'quvchilarin faoliigini ostida o'tkazildi.

Til millatning ma'naviy boyligi. Til faqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'zaro tushunishi, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanish uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarur. Bu o'sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusmlarini saqlanib qolishini anglatadi. Chunki xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog'liq. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miyosidagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondoshishimiz kerak.

**Nigora HAKIMOVA,  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
akademik litseyi Yoshlar masalalari  
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha  
direktor o'rinnbosari**



## XALQARO HAMKORLIK

**Toshkent tibbiyot akademiyasiga Polshanining Adamed xalqaro kompaniyasi delegatsiyasi tashrif buyurdi.**

Akademiya rektori A.Shadmanov va Adamed kompaniyasi rahbari Silviya Berdzik bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muzokaralar chog'ida ikki tomonloma hamkorlikni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot va farmakologiya sohasida ilmiy sinovlarni birqalikda tashkil etish, qo'shma o'quv markazi, simulyatsiya laboratoriyasi va dori vositalari ishlab chiqarish bo'yicha o'quv xonalarini tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, tashrif davomida Adamed kompaniyasi Akademiyada yaratilayotgan zamonaviy sharoitlar va talabalarga o'qitishning innovatsion usullarini yuqori baholadi.

Ma'lumot o'rniда aytish joizki, kompaniya onkologiya, neyropsixiatriya va diabetologiya uchun dori vositalarini ishlab chiqaradi. Hozirda kompaniya Akademianing 10 nafarga yaqin iqtidorli talabalariga maxsus stipendiya ajratdi.



## TIBBIYOT AKADEMIYASI TALABALARI QASAMYOD QABUL QILDI

**Shifokorlik – sharaflı va ayni damda o'ta mas'uliyatlı kasb. Bu zahmatlı faoliyatga umrini baxshida etmoqchi bo'lgan yoshlar kelgusida nafaqat egnidagi oq libosi, balki qalbiga ham gard yuqtirmasliklari lozim.**

Toshkent tibbiyot akademiyasining 1-bosqichiga qabul qilingan yigit-qizlar ishtirokida «Talabalikka bag'ishlov» tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirni TTA rektori A.Shadmanov ochib berib, barcha talabalarga murojaat yo'lladi hamda 1-kurs talabalarini yangi hayot boshlayotganlari bilan tabrikldi. Shundan keyin barcha talabalar talabalik qasamyodini qabul qilishdi. Tibbiyot sohasida o'z faoliyatini yo'nga qo'yishni istagan yoshlar uchun bu ilk qadam bo'ldi.

- Men ham 1-bosqich talabasi sifatida shifokorlik qasamyodini qabul qildim, - deydi 1-kurs talabasi Nasimova Nasiba. - Qasamyodni

qabul qilar ekanman, o'zgacha farxlanish tuyg'usini sezdim. Bu faxr bilan bir qatorda menga yanada katta mas'uliyat yukladi. Albatta, biz ham akademiyamiz tomonidan berilayotgan shart-sharoitlardan to'g'ri foydalangan holda ustozlarimizning ortidan izdosh bo'lib, kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lishga harakat qilamiz.

Tadbir so'nggida guruhlar tomonidan quvnoq, yorqin va esda qolarli dastur va Toshkent tibbiyot akademiyasida tahsil olayotgan xorijliklarning chiqishlari namoyish etildi.

**Toshkent tibbiyot akademiyasi matbuot xizmati**

## KO'KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDI

**Toshkent tibbiyot akademiyasi va Qozon davlat tibbiyot Universiteti Xalqaro fakultet davolash ishi 4-bosqich talabasi Farruxjon Ashurboyev «RENESSANS DAVRI: ILMIY-TADQIQOTLAR YETAKCHISI» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.**



Tashkiliy qo'mita va Xalqaro ilmiy-amaliy tanlov nizomiga ko'ra tantanali taqdirlash marosimida talabamizga esdalik ko'krak nishoni va guvohnomasi, esdalik sovg'alari, diplom, sertifikat, maqolalar to'plami hamda ilmiy rahbariga Tashakkurnoma topshirildi.

Hozirda talabamiz ta'lim jarayonini chet elda davom ettirilayotganligi tufayli mukofotlar oila a'zolariga topshirildi. Talabamizga bundan keyingi o'qishlari va ilmiy tadqiqotlarida ulkan zafarlar tilaymiz. Ana shunday iqtidorli talabalar safi kengayishini tilab qolamiz.





**Dunyoda kasblar ko'p, sohalar bisyor. Lekin shunday kasblar borki, ularning nomini eshitishing bilan diling yayrab ketadi. O'z-o'zidan unga bo'lgan cheksiz mehring ortaveradi.**

Ana shunday kasblardan biri bu - shifokorlik kasbidir. Tibbiyat sohasida o'zidan yaxshi nom qoldirgan, o'z kasbining fidoyisi deya ta'rif beriladigan yurtdoshlarimiz orasida marhum ustoz Mannaf Atamatovich Mirzamuxamedov

ning o'rni katta. Hayotini tibbiyotga bag'ishlagan, qalb ko'rini shu soha rivojiga sarflagan Mannaf Mirzamuxamedov 1920 yil 20 sentabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1937-1943 yillarda Toshkent Davlat tibbiyat institutining muvaffaqiyatli tamomlab, pediatriya yo'naliishi bo'yicha aspiranturaga qabul qilinadi va bolalar kasalliklari kafedrasida ish boshlaydi.

M.Mirzamuxamedov 1943-1947 yillarda klinikada ilmiy izlanishlar olib borib, bolalarda uchraydigan raxit va kamqonlik sabablarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qildi. Shu bois bolalarda kamqonlik kasalligining sabablarini aniqlashda ilmiy izlanishlar olib boradi. Yosh, iqtidorli pedagog M.Mirzamuxamedovga 1947 yili Toshkent Davlat tibbiyat instituti bolalar klinikasi bosh vrachi lavozimi ishonib topshirildi. M.Mirzamuxamedov 1948 yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, 1951 yilgacha bosh vrach lavozimida sidqidildan ishladi.

Shu davrda M.Mirzamuxamedov Toshkent shahar sog'lioni saqlash hay'atining a'zosi sifatida faol ish olib borganini aytish joiz. 1955 yilda esa Samarcand meditsina institutiga rektor etib tayinlandi. Olim olti yillik rektorlik faoliyati davomida institutni mamlakatning eng yaxshi ta'lim dargohlaridan biriga aylantirishga erishdi. U 1960 yilda Toshkent Vrachlar malakasini oshirish institutiga rahbar etib tayinlandi. M.Mirzamuxamedov rahbarligida institutda jarrohlik, urologiya, ko'z kasalliklari, nevrologiya, va boshqa kafedra va laboratoriylar tashkil qilindi. O'sha institutda bolalar kasalliklari kafedrasi dotsenti lavozimida ishlab, 1965 yilda yangi tashkil qilinagan "Onalar va bolalarni muhofaza qilish" ilmiy-tekshirish institutini boshqardi. Shu davrda chaqaloqlarda chaqaloqlik davri patologiyasi, bolalarda o'tkir va surunkali me'da-ichak kasalliklari patologiyasi, ularning etiologik strukturasini o'rganish masalalari, kasallik klinik kechishining o'ziga xosligi, shuningdek, ulardagi biokimyoiy va imunologik ko'rsatkichlarning o'zgarishlari kabi masalalarni o'rgandi.

Olimning yuksak tashkilotchilik qobiliyati va g'ayrat-shijoati tufayli 300 o'ringa mo'ljallangan bino qurilib, unda chaqaloqlik davri patologiyasi, gastroenterologiya, pulmonologiya, ilk go'daklik patologiyasi, allergologiya bo'limlari va to'la-to'kis jihozlangan biokimyoiy, immunologik laboratoriylar tashkil qilindi. O'zbekiston pediatriya ilmiy-tekshirish institutida olib borilgan izlanishlar natijasida o'zbek tibbiyat ilmini butun jahon simpoziumlari va yig'ilishlarida munosib ko'rsata oladigan yirik ilmiy pedagogik markazga aylandi.

Institut rahbari Mannaf Mirzamuxamedov o'zining samarali faoliyatini ilmiy izlanishlar bilan birga olib borib, 1975 yilda "Go'daklarda dizenteriya kasalligining kechish xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

M.Mirzamuxamedovning ilmiy faoliyati yuzasidan 35 maqola, 5 uslubiy qo'llanma nashr etilgan bo'lib, 2 ta doktorlik va 4 ta nomzodlik dissertatsiyasiga rahbarlik qilgan. Uning boy ilmiy faoliyati Varshava (1986) va Toronto (1989)dagagi xalqaro simpozium, Xarkov, Novosibirsk, Kaluga (1989-1990) shaharlaridagi xalqaro konferensiyalarda dunyoning yetakchi tibbiyat mutaxassislarida katta qiziqish uyg'otdi.

Olim 150 dan ortiq alohida e'tiborga loyiq monografiyalar va tibbiy amaliyotda qo'llaniladigan 16 ta uslubiy tavsiyanomalar chiqargan bo'lib, bugungi kunda tibbiyat mutaxassislarining asosiy qo'llanmalaridan biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

M.Mirzamuxamedov neonatologiya bo'yicha ko'zga ko'ringan olimlardan biri bo'lib, uning boshchiligidagi 2-Toshkent Davlat tibbiyat institutida AQSHning Illinois universiteti Chikago tibbiyat markazi bilan hamkorlikda neonatologiya markazi tashkil qilingan.

Olim hayoti davomida bevosita o'zining ilmiy rahbarligi ostida 6 nafar fan doktori va 30 nafar fan nomzodini tayyorladi.

Mannaf Mirzamuxamedovning jamoat ishlaridagi faoliyati benihoya keng qamrovli bo'lib, u hayotining oxirgi kunlarigacha Respublika bolalar shifokorlari jamiyatining rais o'rnbosari, bolalarga

tibbiy-profilaktik yordam ko'rsatish bo'yicha kengash raisining o'rnbosari, O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi IV Boshqarmasi pediatriya bo'yicha bosh maslahatchisi, bolalar o'limini kamaytirish hay'ati raisi, pediatriya bo'yicha muammolar kengashi raisining o'rnbosari sifatida faoliyat olib bordi.

Bu inson chin ma'noda o'z kasbining fidoyisi edi. Shu sabab zahmatkash olimning mehnatlari munosib taqdirlandi. U 1957 yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach", 1980 yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvonlari, 1994 va 1998 yillarda I-darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni va "Shuhrat" medaliga munosib ko'rildi.

- Ustozimiz turli viloyatlarga mutazam xizmat safarlariga chiqib, joylardagi hamkasblariiga beg'araz ilmiy va amaliy yordamlarini ayamas edi, - deydi 2-son Bolalar kasalliklari kafedrasi mudiri, tibbiyat fanlari doktori, professor Ilxamjan Karimjanov. - Yetuk olim, mohir pedagog va jamoat arbobi bo'lgan ustozimiz Mannaf Mirzamuxamedovning yorqin xotirasi biz, shogirdlar qalbida mangu yashaydi.

Ustozning 100 yilligi nishonlanishga yig'ilganlar o'z kasbining fidoyisi, shogirdlariga otalarcha mehribon bo'lgani, ilm-fanga qo'shgan hissasi, yaxshi xislattlarini yodga olishdi.

Ha, inson muqaddas, uning yodi hamisha barhayot. Shubha yo'qki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, mashhur pediatr, tibbiyat fanlari doktori, professor Mannaf Mirzamuxamedov qoldirgan boy ilmiy meros va tajribalar hali uzoq yillarda xalqimiz salomatligini saqlash yo'lida tibbiyotimiz xodimlariga dasturulamal bo'lib xizmat qilaveradi.

I.KARIMDJANOV,

2-son Bolalar kasalliklari kafedrasi mudiri, t.f.d., professor,

L.RAXMONOVA,

shu kafedra dosenti, t.f.d.



## TIBBIYOT AKADEMIYASI GERMANIYA BILAN HAMKORLIK QILADI

**Toshkent tibbiyot akademiyasi va Germanyaning yetakchi tibbiyot klinikasi o'rtaida hamkorlik masalalari yuzasidan uchrashuv bo'lib o'tdi.**



Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor A.Shadmanov, Frayburg va Mennxaym klinikalari vakillari, jumladan, "OPASCA GmbH" kompaniyasi bosh direktori Aleksey Sverdlov, Mannxaym shahri universiteti klinikasi moliya masalalari bo'yicha bosh direktori Freddi Bergmann, Frayburg shahri universiteti kasalxonasining xalqaro aloqalar bo'yicha direktori va kardiolog Kristof A bilan hamkorlik kelishuviga erishildi.

Unga ko'ra, endilikda talabalar almashinuvni doirasida mobil dasturlar, maxsus tibbiy adabiyot va o'quv qollarini yetkazib berishda Germaniyadagi yetakchi tibbiyot klinikasi bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi o'rtaida aloqalar mustahkamlanadi.

Tibbiy xizmat sifatini jahon andoza-lari darajasiga olib chiqishdagi sa'y-harakatlar aniq, manzilli rejalar asosida mu-taxassislar Germaniya tibbiyoti tajribasini Frayburg klinikasida o'tab qaytishadi.

**Gulnoza BOBOYEVA,  
O'ZA**



## BAXCHESHEHIR UNIVERSITETI REKTORI SH.KARADENIZ BOSHCHILIGIDAGI DELEGATSIYANING TASHRIFI

**Toshkent tibbiyot akademiyasiga Baxcheshehir universiteti rektori Sh.Karadeniz boschchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.**

Dastlab, Sh.Karadeniz va akademiya rektori A.Shadmanov o'rtaida uchrashuv bo'lib o'tdi. Muloqot chog'iда ikki davlat munosabatlarning ustuvor jihatlariga e'tibor qaratildi. Shundan so'ng, mehmonlar akademiyada amalga

oshirilayotgan yan-gilanishlar bilan tanishdi.

Delegatsiya vakil-lariga ta'lim dargohining tarixi va rivojlanish davrlari, so'nggi yillarda bilim maskani hayotida ro'y bergan ulkan o'zgarishlar haqida batafsil ma'lum

mot berildi. Sh.Karadeniz samimiyl qabul uchun minnatdorlik bildirib, yurtimizdag o'zgarishlar va yan-gilanishlarni yuksak baholab, ulkan islo-hotlar o'zining ijobiy samarasini berayot-ganini ta'kidladi.

## II-XALQARO TALABALAR ILMIY KONFERENSIYASI

**Toshkent tibbiyot akademiyasining 100 yilligiga bag'ishlangan II-Xalqaro talabalar ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi.**

Konferensiyada O'zbekistondagi barcha tibbiyot yo'naliishidagi oliy ta'lim muassasalari shuningdek, dunyo-ga mashhur tibbiyot oliy ta'lim muassasalari xususian, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston Respublikasi, Belarus, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari oliy o'quv yurtlari talabalar-ri ishtirok etdi.

Shuni alohida e'tirof etish o'rinniki, TTA bilan doimiy hamkorlikda faoliyat olib borayotgan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatি GIZ va KOFIH Koreya xalqaro sog'liqni saqlash jamg'armalarining mazkur nufuzli tadbirni tashkillashtirishdagi xiz-matlari beqiyos.

Tadbirda yosh olimlar va talaba

yoshlar uchun ilmiy salohiyat yana bir bor sinovdan o'tdi. Yangi fikr va g'oyalilar asosida innovatsiyalar, zamo-naviy yondashuvlar, biri birini takrorlamaydigan ekskluziv yo'naliishlar, mutloq yangicha qarashlar bilimlar bellashuvining adolatli maydoniga ko'chdi.

O'ylaymizki, talabalarning jahon ilm-fanidagi faolligini oshirishga xizmat qilgan mazkur anjuman kelajakda ham sinalgan tajribalarni o'rtoqlashish uchun qulay do'stona makon vazifasini o'tadi.

Bu esa respublikamiz fan va tex-nika taraqqiyoti rivojiga yosh olimlar, yangi iqtidorlar tomonidan qo'shilajak munosib hissadir.

**Akademika matbuot xizmati**



## KUZ XAYOLLARI

**Ona yurtimizda rizq-baraka ularshuvchi, yilni sarhisob qiluvchi sahiy kuz fasli hukm surmoqda. Ahmad Yugnakiy, Yusuf xos Hojib, Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziylar "tiyramoh" ya'ni ochiq oy deb ulug'lagan bu oylar darhaqiqat dasturxonlarimiz, rizqu ro'zimizga qut-baraka keltirib, yangi orzular va rejalarga debocha bo'ladi.**

O'zbekiston Qahramoni ustozи komil Abdulla Oripov (Alloh rahmatiga olgan bo'lsin) o'zining kuzga bag'ishlangan she'rini quyidagi satrlar bilan boshlagan:

*Qorayganda olis tog'larning qori,  
Qirlarga cho'kkanda oqshomgi tuman,  
Sovuq kuz yelidan junjikib nari  
Ochiq ayvon ostin etganda maskan:  
Do'stginam, xayolan quchaman seni,  
Xazon davrasida kutaman seni.  
Ustozи komil ushbu falsafiy she'rni quyidagi misralar bilan yakunlaydi:  
Shu dam tuyg'ularga to'ladi ko'nglim,  
Titrab tarashlayman qalamim uchin.  
Tong ham yorishmoqda, ey mening umrim,  
Bunchalar shiddat-la shoshasan nechun?  
Xazonlar shoshadi, shoshaman men ham,  
Do'stim, quchog'imga shoshib kel sen ham.*

Do'stdan maqsad nima? Do'st – bu hamkasaba, xayrixoh qo'ni-qo'shni, hatto maslakdosh bo'lgan qondoshlar ham. Xolisanlillo aytganda butun O'zbekistonning 36 milliondan ortiq aholisi o'zini anglagan odam uchun do'st, birodar, maslakdosh, yelkadosh.

Kuz fasilda yurtimizda bayramlar bisyor bo'ladi. Bu yil mustaqilligimizning 31 yilligini sentabr oyida katta shukuhlar bilan kutib oldik, ana shu yillar mobaynida xalqimiz va davlatimiz qanchalar zafarlarga erishib, jahon hamjamiyati oldida nufuzi oshdi. Yurtboshimizning tashabbusi bilan aholimiz 5 kun dam olib, o'z to'y-tantanalarini va ziyoratlari, tashriflarini bemalol o'tkazib oldilar.

Oradan hech qancha o'tmasdan 1 oktabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ni nishonladik. Akademiyamizda bu boroda yaxshi tadbir o'tkazilib, professor-o'qituvchilarimiz orasidan eng ishchan, eng layoqatli va iqtidorilari, bir so'z bilan aytganda munosiblari tanlanib, turli davlat mukofotlari, sovg'alariga loyiq ko'rildi. Bu faslda biz hademay shifokorlar bayramini ham kutib olamiz, buning uchun o'zimizning butun malakamiz, ko'nikmalarimizni ishga solib tayyorgarlik ko'rmoqdamiz.

Akademiyamiz miqyosida olib qarasak, hammamiz uchun qadrli bo'lgan ilm dargohimiz iqtisodiy mustaqillikka erishganidan keyin rektorimiz, professor A.Shadmanovning shaxsiy tashabbuslari bilan qator foydali islohotlar va yangiliklar amalga oshirildi. Bularning barchasi ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, talaba va o'qituvchilarning bo'sh vaqtini tejash va samarali foydalananish uchun qilindi. Shulardan biri mashg'ulot



soatlarining avvalgidek 8.30 da emas, balki 8.00 da boshlanishidir. Bunda talaba va o'qituvchilar ertaroq mashg'ulotni tugatib, o'z ustida mustaqil ishslash uchun qo'shimcha vaqt zahirasi paydo bo'ldi. Bunday islohotlarni sanab adog'iga yetish qiyin.

Fursatdan foydalanih, muhtaram jamoamiz ahlini kuz fasilda ijobji sarhisoblarga erishishlari va kirib kelayotgan 2023 yilning ibtidosisiga yaxshi salomatlik va ulkan zafarlar bilan yetishishlariga tilakdoshmiz.

**Aljon ZOHIDIY,  
Xalqaro "Ekologiya i zdorovye cheloveka" ilmiy  
akademiyasi akademigi, Respublika Yozuvchilar va  
Jurnalistlar uyushmasi a'zosi,  
Qutbiddin NIZOMOV,  
Sog'liqni saqlash a'lochisi**



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2022 yil oktabr)

No	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi	dotsent – 1,0;
2.	Urologiya	dotsent – 0,5;
3.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent – 1,0;
4.	Anesteziologiya va reanimatologiya	katta o'qituvchi – 1,0;
5.	2-son ichki kasalliklar va endokrinologiya	assistant – 1,0;
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
1.	2-son bolalar kasalliklari	assistant – 1,0;
2.	Anatomiya va klinik anatomiya	dotsent – 1,0;
3.	2-son akusherlik va ginekologiya	assistant – 1,0;
4.	Xirurgik kasalliklar	assistant – 1,0;
5.	Patologik anatomiya	assistant – 1,0;
<b>Tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
1.	Normal va patologik fiziologiya	katta o'qituvchi – 1,0;
2.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklar	katta o'qituvchi – 1,0;
3.	Psixiatriya va narkologiya	katta o'qituvchi – 1,0;
<b>Tibbiy profilaktika fakulteti</b>		
1.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistant – 0,5;
<b>Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMX fakulteti</b>		
1.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	katta o'qituvchi – 0,5;

**Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi. Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.**

**MUASSIS:**  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

**MUHARRIR**  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

**TAHRIR HAYATI:**  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiya RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir  
Bepul tarqatiladi